

3/2024,
may-
iyun
(№ 00071)



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM SOHASINI RIVOJLANTIRISH BORASIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR TAHLILI

Beknaeva Shaxnoza Vladimirovna

RENESSANS ta'lim universiteti MJCh direktori

E-mail: dloong1507@mail.ru

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol12_iss3/i14

Annotasiya

Jahonda global integrasiya va xalqaro maydondagi raqobatning kuchayishi sharoitida barqaror iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashda zamonaviy bilim va malakaga ega bo'lgan, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga yo'naltirilgan oliy ta'lim tizimining roli va ahamiyati oshib bormoqda. Sohadagi tub o'zgarishlar oliy ta'lim boshqaruv tizimini zamon talablari asosida takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim sohasini rivojlantirish borasidagi asosiy tendensiyalar tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: Олий таълим муассасалари, илмий даража, қабул параметрлари, илмий салоҳият.

Kirish

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga binoan, oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirishning strategik maqsadlari sifatida mamlakatni rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash, oliy ta'limga aholi qamrovini oshirish va ta'lim olish uchun tegishli shart-sharoitini yaratish, shuningdek, oliy ta'lim tizimining mintaqaviy va global raqobatbardoshligini ta'minlashdan iborat. Ushbu strategik maqsadlarni amalga oshirish uchun oliy ta'lim sohasida kuzatilayotgan bir qator dolzarb muammo va kamchiliklar bartaraf etilishi lozim. Shu boisdan, ilmiy tadqiqot ishining mazkur paragrafida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqorida keltirilgan farmonida o'z aksini topgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijalarini tahlil qilish va shu asosda uzoq muddatli xususiyatga ega bo'lgan tendensiyalarni aniqlashga harakat qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot ishida ilmiy mushohada, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, mantiqiy fikrlash, guruhlash, korrelyatsion-regression analiz, ekspert baholash, prognozlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Qayd etilgan muammo va kamchiliklar doirasida birinchi navbatdagi masala sifatida mamlakatimiz aholisini oliy ta'lim bilan qamrov darajasining pastligini qayd etish mumkin. Oliy ta'lim muassasalariga qabul parametrlari 2017-2021-yillar davomida to'xtovsiz oshib borgan. Xususan, 2017-yilda OTM bakalavriatiga qabul kvotasi 66 586 nafarni, magistraturaga 5000 nafarni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 2018-

yilda 96 950 va 6 051 nafarni, 2019 yilda 113 347 va 7 705 nafarni, 2020-yilda 148 114 va 10 425 nafarni, 2021-yilda 157 755 va 12 900 nafargacha oshgan. Ushbu davrda qabul kvotalarining o'sish sur'atlari oldingi yilga nisbatan mos ravishda 145,6 foiz va 121 foiz, 116,9 foiz va 127,3 foiz, 130,6 foiz va 135,3 foiz, 106,5 foiz va 123,7 foizni tashkil etgan. Bakalavriat bo'yicha qabul kvotalarining eng yuqori o'sish sur'ati 2018-yilda (145,6 foiz) va 2020-yilda (130,6 foiz) kuzatilgan. Magistraturaga qabul kvotalari 2020-yillarda (135,3 foiz) va 2021 (123,7 foiz) eng yuqori darajada bo'lgan.

Oliy ta'lim bilan qamrov darajasining oshib borishi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida OTM roli va ahamiyatini kuchaytiruvchi omil hisoblanadi. Bunday holatda OTM kadrlar buyurtmachilari talablari, shuningdek, mamlakat va uning alohida hududlarini rivojlantirish istiqbollari, jamiyat va texnologiyalarning keskin rivojlanishi natijasida yuzaga kelayotgan yangi mutaxassisliklar va boshqa ko'plab omillarni e'tiborga olishlari lozim bo'ladi. Qayd etilgan xususiyatlar, jumladan, talabalar sonining oshib borishi OTM boshqaruv tizimi oldida ko'plab muammolarni yuzaga keltiradi. Ushbu muammolarning eng murakkabilaridan biri OTMda ta'lim jarayonini tashkil etish hisoblanadi.

Fikrimizcha, oliy ta'lim qamrovi darajasining oshib borishi ta'lim mazmuni va mohiyatiga nisbatan yangi yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, mamlakatimizning barcha hududlarida OTM tahsil olayotgan talabalar soni ko'payib bormoqda. Talabalar sonining ko'payishi yangi OTM va ularning filiallarining ochilishi, mavjud OTM qabul kvotalarining ko'paytirilishi, kechki, sirtqi va boshqa ta'lim turlarining joriy etilishi, shuningdek, OTM o'z-o'zini moliyalashtirish tizimiga o'tkazilishi hisobiga yuz bermoqda. Xususan, 2015/2016-o'quv yilida mamlakatimiz bo'yicha jami talabalar soni 264 291 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2020/2021-o'quv yilida 808 439 nafarga etgan. Ushbu davrda ularning soni 544 148 nafarga yoki 3 barobardan ko'proqqa oshgan. Mamlakat hududlari bo'yicha aynan shunday tendensiya kuzatilmoqda. Ammo shuni e'tirof etish lozimki, OTM joylashuvi va talabalarning hududiy kesimdagi soni o'rtasidagi disproporsiyalar saqlanib qolmoqda va fikrimizcha, yaqin istiqbolda ularni to'liq bartaraf etish imkoni mavjud emas.

2015/2016-o'quv yilida Qoraqalpog'iston hududidagi OTM tahsil olayotgan talabalar soni jami talabalarning 6,4 foiziga teng bo'lgan bo'lsa, 2020/2021-o'quv yilida 5,7 foizgacha kamaygan. Mazkur ko'rsatkich Andijon viloyatida mos ravishda 6,5 foiz va 5,9 foizni, Samarqand viloyatida 9,8 foiz va 8,7 foizni tashkil etgan. Nisbiy salmoqning pasayib borish tendensiyasini bartaraf etish masalasi OTM boshqaruvi tizimi oldida bir qator muammolarni yuzaga keltiradi. Fikrimizcha, mazkur muammolar birinchi navbatda o'quv auditoriyalarini keskin oshirish, talabalar turar joylari, axborot resurs markazlari, o'quv laboratoriyalari, sport sog'lomlashtirish va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari quvvatlarini oshirish hamda modernizatsiya qilish bilan bog'liq.

1-jadval

Mamlakat hududlari kesimida oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni, (nafar)

Hududlar	2015/20 16 o'quv yili	2016/20 17 o'quv yili	2017/20 18 o'quv yili	2018/20 19 o'quv yili	2019/20 20 o'quv yili	2020/20 21 o'quv yili	2021/20 22 o'quv yili
O'zbekiston Respublikasi	264291	268281	297689	360204	440991	571512	808439
Qoraqalpog'iston Respublikasi	16898	17545	19447	22272	25442	35487	46585
Andijon	17351	17585	19184	21718	26036	30895	47651
Buxoro	13656	13990	15939	20895	24771	35625	43959
Jizzax	10228	10872	12530	14732	18000	23391	29955
Qashqadaryo	13325	14303	15883	18391	22452	27835	44222
Navoiy	8408	8822	9683	11641	13636	17015	21710
Namangan	10977	11495	13319	16742	20109	25989	41829
Samarqand	25980	26846	29125	34930	41093	54827	70772
Surxondaryo	6955	7430	9275	15070	20131	25628	39909
Sirdaryo	3774	3904	4611	6811	9089	9597	16764
Toshkent	7191	7286	8089	14882	20914	28509	42828
Farg'ona	18190	18335	21466	27176	35819	48415	62332
Xorazm	8605	9101	10450	13382	16216	22787	28741
Toshkent sh.	102753	100767	108688	121562	147283	185512	271182

Albatta, ta'lim qamrovi darajasining oshib borishi Prezidentimiz farmonida qayd etilgan ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyat bilan bog'liq bo'lgan ikkinchi muammoni hal etishni taqazo etadi. Bunda OTM professor-o'qituvchilarining ilmiy salohiyatini oshirish masalasi muhim o'rin tutadi.

2-jadval

Respublika oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyati, (nafar va foizda)

τ/p	Ko'rsatkichlar	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.
1.	Fan doktorlari yoki DSc	1666	2023	2201	2312	2431
2.	Fan nomzodlari yoki PhD	6649	7050	7769	9050	9653
3.	OTMda ishlaydigan professor-o'qituvchilarning umumiy soni	25418	26297	26837	29998	32345
4.	Ilmiy salohiyat	32,7%	34,5%	37,2%	37,9%	37,4%

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, OTM faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyati yildan yilga oshib bormoqda. Xususan, 2017-yilda OTM ishlayotgan 25 418 nafar professor-o'qituvchilarning 1 666 nafari fan doktori (DSc) va 6 649 nafari fan nomzodi (PhD) ilmiy darajasiga ega bo'lgan bo'lsa, 2021-yilga kelib ularning soni mos ravishda 2 431 va 9 653 nafarni tashkil etgan. Ushbu davrda OTM ishlayotgan professor-o'qituvchilar soni 7 017 nafarga yoki 127,5 foizga oshgan bo'lsa, fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga ega bo'lganlar soni 765 nafarga yoki 145,9 foizga, fan nomzodi yoki PhD ilmiy darajasiga ega bo'lganlar soni

3 004 nafarga yoki 145,2 foizga ko'paygan. Ilmiy salohiyat darajasi 2017-yilda 32,7 foizga teng bo'lsa, 2021-yilga kelib 37,4 foizgacha ko'paygan.

3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2020-yil yakunida tayanch doktorantura institutlarida tahsil oluvchilar soni 2 674 nafarni tashkil etgan. Tayanch doktorantlarning soni 2014-yilga nisbatan 258,1 foizga, 2017-yilga nisbatan 163,8 foizga 2019-yilga nisbatan 119 foizga oshgan. 2020-yil yakunida tayanch doktorantlarning 58,2 foizi Toshkent shahrida, 7,5 foizi Toshkent viloyatida, 6,5 foizi Andijon viloyatida, 6,1 foizi Buxoro viloyatida, 4,8 foizi Samarqand shahrida tahsil olishgan. Shunisi e'tiborga molikki, Farg'ona viloyatida tahsil oluvchi tayanch doktorantlar soni 18 nafarni, Jizzax viloyatida 18 nafarni, Namangan viloyatida 38 nafarni tashkil etgan xolos. Surxondaryo viloyatida 2019 va 2020-yillar davomida birorta ham doktorant qabul qilinmagan. Shuningdek, Toshkent shahridagi doktorantura institutlariga qabul qilinganlar soni 2019-yilga nisbatan 2020-yilda 381 nafarga oshgan bo'lsa, Samarqand viloyatida ularning soni 285 nafardan 128 nafargacha, Farg'ona viloyatida 37 nafardan 18 nafargacha, Namangan viloyatida 52 nafardan 38 nafargacha kamaygan.

3-jadval

Tayanch doktorantura institutlarida tahsil oluvchilar soni, (nafar)

τ/p	Xududlar	2014- y.	2015- y.	2016- y.	2017- y.	2018- y.	2019- y.	2020-y.
1	O'zbekiston Respublikasi	1036	1389	1370	1632	1764	2247	2674
shu jumladan:								
1.1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	35	45	44	54	63	104	136
1.2.	Andijon	20	34	52	78	109	156	175
1.3.	Buxoro	37	49	48	56	98	135	165
1.4.	Jizzax	10	13	12	15	11	14	18
1.5.	Qashqadaryo	15	21	20	20	3	3	44
1.6.	Navoiy	5	8	11	18	24	32	56
1.7.	Namangan	13	21	25	49	45	52	38
1.8.	Samarqand	99	119	104	189	187	285	128
1.9.	Surxondaryo	5	7	10	19	19	-	-
1.10.	Sirdaryo	1	5	4	19	28	41	44
1.11.	Toshkent	63	100	118	123	119	127	201
1.12.	Farg'ona	22	25	27	41	42	37	18
1.13.	Xorazm	17	27	34	47	46	85	94
1.14.	Toshkent sh.	694	915	861	904	970	1176	1557

Yuqorida qayd etilgan holat jiddiy muammolardan biri bo'lib, hududiy doktorantura institutlari faoliyatida ma'lum kamchiliklar mavjudligidan dalolat bermoqda. Bunday vaziyatda o'z-o'zini moliyalashtirish tizimiga o'tgan OTM mavjud daromadlari hisobidan doktorantura institutlarini moliyalashtirish mexanizmlarini ishlab chiqishlari lozim. Mazkur mulohazani asoslash maqsadida OTM faoliyati natijalaridan biri bo'lgan daromadlar va xarajatlar hajmini tahlil etish maqsadga muvofiq.

4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, OTM ro'yxatining dastlabki 10 taligidan joy olgan muassasalar (Urganch davlat universitetidan tashqari) o'z faoliyatlaridan olgan

daromadlari va xarajatlari o'rtasida ijobiy farqni yuzaga keltirishgan. Xususan, jami daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi ijobiy farq Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida 259 363 mln. so'mni, Namangan davlat universitetida 78 679 mln. so'mni, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida 52 112 mln. so'mni, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida 49 294 mln. so'mni, Farg'ona davlat universitetida 45 796 mln. so'mni, Termiz davlat universitetida 22 830 mln. so'mni, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida 22 830 mln. so'mni tashkil etgan.

4-jadval

Top-10 oliy ta'lim muassasalari daromadlari va xarajatlari salmogi to'g'risidagi ma'lumot, (mln. so'mda)

No	Oliy ta'lim muassasalari nomi	Jami daromadlar	Jami xarajatlar	Daromad va xarajatlar o'rtasidagi farq
1.	Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti	398 619	139 256	+259 363
2.	Namangan davlat universiteti	320 567	241 888	+78 679
3.	Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti	315 449	293 327	+22 122
4.	Urganch davlat universiteti	308 789	312 348	. 3 559
5.	Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti	286 134	234 022	+52 112
6.	Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti	276 072	253 242	+22 830
7.	Buxoro davlat universiteti	251 734	244 808	+6 926
8.	Termiz davlat universiteti	251 213	225 929	+25 284
9.	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti	237 407	188 113	+49 294
10.	Farg'ona davlat universiteti	233 458	187 662	+45 796

OTM tomonidan ta'lim xizmatlarini ko'rsatish va boshqa manbalardan olgan daromadlari OTM professor-o'qituvchilarining ilmiy salohiyatini oshirish hamda ilmiy-tadqiqotlarning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlarni moliyalashtirishni hal etish imkonini beradi. Shuningdek, OTM o'quv bazasini byudjet mablag'larini jalb etmasdan turib modernizatsiya qilish ishlarini faol olib borishning moliyaviy asoslarini yaratib beradi.

Shu o'rinda qayl etish joizki, professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi omillardan yana biri bo'lgan mehnatga haq to'lash tizimidagi o'zgarishlarni tahlil etamiz. Mazkur tahlil asosida moddiy rag'batlantirish tizimidagi o'zgarishlar dinamikasi baholanadi.

Koronavirus pandemiyasining oldini olish maqsadida joriy etilgan keskin karantin choralari OTM professor-o'qituvchilarining malakasini oshirish sohasida raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullaridan foydalanish ko'lamini kengaytirdi. Garchi 2017-yilda malaka oshirish markazlarida malaka oshirgan professor-o'qituvchilar soni 6 693 nafarni, masofadan malaka oshirganlar soni 916 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yildan boshlab, masofadan malaka oshiruvchilar hamda muqobil malaka oshirish kurslaridan o'tgan professor-o'qituvchilar soni oshib borgan. Xususan, 2020-yilda masofadan malaka oshirgan

professor-o'qituvchilar soni 7 837 nafarni, 2021-yilda 8 697 nafarni tashkil etgan. 2020-2021-yil davomida muqobil malaka oshirish kurslaridan o'tgan professor-o'qituvchilar soni 3 837 nafarga etgan. Bevosita malaka oshirish markazlarida ikki yil davomida 2 810 nafar professor-o'qituvchi malaka oshirishgan.

Natijalar

Ilmiy tadqiqot ishining mazkur paragrafida amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarni qayd etish mumkin:

1. Oliy ta'lim muassasalari boshqaruv tizimi faoliyatiga uzoq muddatli ta'sir etuvchi tendensiyalar sifatida:

- oliy ta'lim bilan qamrov darajasining oshirish borasidagi davlat siyosati OTM tahsil olayotgan talabalar sonining to'xtovsiz ko'payishiga olib keladi;

- talabalar tahsil olayotgan hududlar o'rtasidagi disproporsiyalarni bartaraf etish uchun hududlarda faoliyat yuritayotgan mamlakatimiz va xorijiy OTM filiallari, shuningdek, davlat-xususiy sherikchiligi va xususiy OTMlar tarmog'i yanada kengaytiriladi;

- talabalar va OTM sonining oshib borishi hamda ta'lim sifatini oshirish bo'yicha talablarning qat'iylashuvi natijasida ilmiy daraja va unvonlarga ega bo'lgan professor-o'qituvchilarga bo'lgan talab yanada oshadi;

- ilmiy daraja va unvonlarga ega bo'lgan professor-o'qituvchilarga bo'lgan talabning oshib borishi, mamlakat va uning mintaqalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda ilmiy-tadqiqotlar va innovatsion faoliyatning roli va ahamiyatining kuchayishi, iqtidorli yoshlarni doktorantura institutlariga jalb etish orqali ilmiy salohiyatni oshirish borasidagi chora-tadbirlarni faollashtirishni taqazo etadi;

- OTM ga moliyaviy va akademik mustaqillikning berilishi natijasida ularning moliyaviy imkoniyatlari kengayib boradi. Moliyaviy resurslarni strategik maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltirish va ularning samaradorligini ta'minlash ustuvorlik kasb etadi.

2. Oliy ta'lim muassasalari boshqaruv tizimi tomonidan bartaraf etilishi lozim bo'lgan muammolar jumlasiga:

- OTM faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar va talabalar soni o'rtasidagi optimal nisbatni ta'minlash;

- OTMda faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyatini yanada oshirish;

- OTMning moddiy-texnik bazasi mustahkamlash, talabalar turar joy majmualarini kengaytirish kabi masalarni hal etilishi lozimligi kiritish mumkin.

Xulosa

Amalga oshirilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar qayd etildi:

1. Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimi faoliyatining joriy holati tahlili uzoq muddatli ta'sir etish xususiyatiga ega bo'lgan bir qator omillarni e'tirof qilish mumkin. Xususan:

Oliy ta'lim muassasalari boshqaruv tizimi faoliyatiga uzoq muddatli ta'sir etuvchi tendensiyalar sifatida:

- oliy ta'lim bilan qamrov darajasining oshirish borasidagi davlat siyosati OTM tahsil olayotgan talabalar sonining to'xtovsiz ko'payishiga olib keladi;

- talabalar tahsil olayotgan hududlar o'rtasidagi disproporsiyalarni bartaraf etish uchun hududlarda faoliyat yuritayotgan mamlakatimiz va xorijiy OTM filiallari, shuningdek, davlat-xususiy sherikchiligi va xususiy OTMlar tarmog'i yanada kengaytiriladi;

- talabalar va OTM sonining oshib borishi hamda ta'lim sifatini oshirish bo'yicha

talablarning qat'iy lashuvi natijasida ilmiy daraja va unvonlarga ega bo'lgan professor-o'qituvchilarga bo'lgan talab yanada oshadi;

- ilmiy daraja va unvonlarga ega bo'lgan professor-o'qituvchilarga bo'lgan talabning oshib borishi, mamlakat va uning mintaqalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda ilmiy-tadqiqotlar va innovatsion faoliyatning roli va ahamiyatining kuchayishi, iqtidorli yoshlarni doktarantura institutlariga jalb etish orqali ilmiy salohiyatni oshirish borasidagi chora-tadbirlarni faollashtirishni taqazo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Айтбембетова А.Б., Дюсебаева Ж.К. Роль высшего образования в формировании человеческого потенциала Республики Казахстан // Вестник КазНУ. Серия «Экономическая». – 2016. – №3/2(115). – С. 62-66.
2. Андреева Т.А. Развитие интегрированной системы менеджмента качества и стратегического управления предприятий промышленности. Диссер.на соис. ученой степени доктора экономических наук. Саратов 2016 г. 57 стр.
3. Виссема Й.Г. Университет третьего поколения: управление университетом в переходный период. М.: Издательство «Олимп-Бизнес», 2016. 432 с.
4. Высшее образование в XXI веке: подходы и практические меры. Декларация Всемирной конференции по высшему образованию
5. Головкин Н.В., Зиневич О.В., Рузанкина Е.А. Университет третьего поколения: Кларк Б. и Й. Уйсема // Высшее образование в России. – 2016. – №8-9. – С. 40-47.
6. Друкер, П. Рынок: как выйти в лидеры (практика и принципы) – М., 1992. – 43 стр.
7. Житкова В.А. Система оценки эффективности деятельности структурных подразделений и персонала в вузе // Современные проблемы науки и образования. – 2016. – №6. – С. 364.
8. Карпов А. Современный университет как драйвер экономического роста: модели и миссии // Вопросы экономики. – 2017. – №3. – С. 58-76.
9. Қаҳҳоров О.С. Таълим муассасалари бошқарувининг самарадорлигини боҳолашдаги ёндашувлар ва усуллар. “Иқтисодийёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 1, январь-февраль, 2017 й.
10. Масюк Н. Н., Петрищев П. В., Бушуева М. А. Стратегическое партнерство как свидетельство альянс о способности университета [Электрон. ресурс] // Экономика и предпринимательство. 2014. № 12 (8). С. 658–662. Режим доступа: <https://www.elibrary.ru/item>. Образование и наука. Том 23, № 4. 2021 / The Education and Science Journal. Vol. 23, № 4. 2021
11. Мескон, М. Основы менеджмента / М. Мескон, М. Альберт, пер. с англ. – М.: Дело, 1993. – 45 стр.
12. Райзберг, Б.А. Современный экономический словарь / Б.А. Райзберг, Л.Ш. Лозовский, Е.Б. Стародубцева. – М.: ИНФРА-М, 2005. – 234 стр.
13. Синк, Д.С. Управление производительностью: планирование, измерение и оценка, контроль и повышение. пер. с англ. – М.: Букинист, 1989. – 56 стр.
14. Солодухин, К.С. Разработка методологии стратегического управления ВУЗом на основе теории заинтересованных сторон: дисс. ... доктора экономических наук: 08.00.05 - Москва, 2011. - 293 с.